

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
Каланова Сабохат Мурадovна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. профессор (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
2. Karimov Bobir JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
3. Mamatov Normurat IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
4. Rasulov Abdimumin SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
5. Xusanova Hayriniso IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
6. Abduxalilov Abdullo NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
8. Abdullayev Akmal O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
9. Хасанова Мавлюда СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
11. Алимухамедова Нодира ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
12. Tolipov Abdug‘affor VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
13. Berdimuratov Marat YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

14. Хамиджонов Умиджон	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
15. Ixtiyarov Farhod	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
16. Хасанова Мавлюда	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
17. Radjabova Aziza	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
18. Kalanova Sabohat	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
19. Ixomjon Xudayarov	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
20. Tagaymuratova Gulchehra	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
21. Jabborov Jaxongir	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
22. Ixtiyarov Farhod	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
23. Xasanov Sharofidin	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
24. Nurulloev Shahriyor	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
25. Аликариев Нуриддин	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
26. Alikariyeva A'loxon	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Tagaymuratova Gulchehra,

Guliston davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: Gulchehratogaymuratova@gmail.com

KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099581>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola qarindoshlar o'rtasidagi nikohni sotsiologik va bioetik yondashuvlar asosida nazariy, ilmiy va empirik jihatdan tahlil qiladi. Nazariy qismda endogamiya, qarindoshchilik tizimi, ijtimoiy reproduksiya va bioetik tamoyillar konseptual asos sifatida yoritiladi. Ilmiy tahlilda konsanguin nikohlarning demografik va genetik oqibatlarini, xalqaro tajribalar hamda sog'liqni saqlash siyosatidagi bioetik me'yorlar qiyosiy o'rganiladi. Empirik tadqiqotda esa aholining qarindoshlar nikohiga munosabati, xavfni idrok etish darajasi va reproduktiv xulqni belgilovchi ijtimoiy omillar statistik usullar orqali baholanadi. Tadqiqot natijalari konsanguin nikohlar bo'yicha ijtimoiy ongning oshirish va bioetik jihatdan mas'uliyatli qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy xulosalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: yaqin qarindoshlar nikohi, endogamiya, konsanguin, bioetika, sotsiologik tahlil, irsiy kasalliklar, huquqiy cheklovlar, sog'lom avlod.

Тагаймуратова Гульчехра,

Преподаватель кафедры социальных наук

Гулистанского государственного университета

e-mail: Gulchehratogaymuratova@gmail.com

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ И БИОЭТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФЕНОМЕНУ РОДСТВЕННЫХ БРАКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически, научно и эмпирически анализируется брак между родственниками, основанный на социологических и биоэтических подходах. Теоретическая часть охватывает эндогамию, систему родства, социальное воспроизводство и биоэтические принципы как концептуальную основу. В научном анализе проводится сравнительное изучение демографических и генетических последствий кровнородственных браков, международного опыта и биоэтических норм в политике здравоохранения. В эмпирическом исследовании с использованием статистических методов оцениваются отношение населения к кровнородственным бракам, уровень восприятия риска и социальные факторы, определяющие репродуктивное поведение. Результаты исследования предлагают научные выводы, способствующие повышению общественной осведомленности о кровнородственных браках и принятию биоэтически ответственных решений.

Ключевые слова: кровнородственные браки, эндогамия, кровное родство, биоэтика, социологический анализ, наследственные заболевания, правовые ограничения, здоровое поколение.

Tagaymuratova Gulchehra,
Lecturer, Department of Social Sciences,
Gulistan State University
e-mail: Gulchehratogaymuratova@gmail.com

SOCIAL FACTORS OF THE PHENOMENON OF CONSANGUINE MARRIAGES AND BIOETHICAL APPROACHES

ABSTRACT

This article analyzes marriage between relatives theoretically, scientifically and empirically based on sociological and bioethical approaches. The theoretical part covers endogamy, the kinship system, social reproduction and bioethical principles as a conceptual basis. The scientific analysis comparatively studies the demographic and genetic consequences of consanguineous marriages, international experiences and bioethical norms in health policy. In the empirical study, the attitude of the population to consanguineous marriages, the level of risk perception and social factors determining reproductive behavior are assessed using statistical methods. The results of the study offer scientific conclusions that support raising social awareness of consanguineous marriages and making bioethically responsible decisions.

Keywords: consanguineous marriage, endogamy, consanguinity, bioethics, sociological analysis, hereditary diseases, legal restrictions, healthy generation.

KIRISH

Insoniyat tarixida nikoh instituti har doim ijtimoiy tizimning markazida bo‘lgan. Nikoh nafaqat shaxsiy hayotiy qaror, balki jamiyatning madaniy, diniy, iqtisodiy va biogenetik tuzilmasini belgilovchi ijtimoiy institut sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh – ya’ni konsangvin nikoh – tarixiy, sotsiologik va bioetik jihatdan o‘ziga xos murakkab fenomen hisoblanadi.

Mazkur masala sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot, bioetika va antropologiya fanlarining bog‘langan nuqtasida joylashgan bo‘lib, uni faqat genetik yoki dini asosda baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Chunki, qarindoshlar nikohi – bu bir tomondan madaniy va ijtimoiy zarurat, ikkinchi tomondan esa biologik va etik xavf manbai hisoblanadi.

O‘zbekistonning ayrim hududlarida hanuzgacha yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh amaliyoti uchray turadi. Yaqin qarindoshlar bilan quda-anda bo‘lish – o‘tmishda muayyan maqsadlarga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin.

Lekin, bugungi kunda uning og‘ir oqibatlari – irsiy kasalliklar, oilaviy zo‘ravonlik va iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo‘layotgani haqiqat. Shu boisdan, bu masalaga faqat “bobolarimizdan qolgan an’ana”, deb qaramasdan, ilmiy tahlil va jamiyatning kelajak avlodlari sog‘lig‘ini ta’minlash nuqtai nazaridan yondashish zarur.

Har bir jamiyatda nikohni huquqiy tartibga solish nafaqat oilaviy munosabatlarni, balki inson salomatligi, kelajak avlod sog‘lomligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ham nikoh tuzishga nisbatan muayyan cheklovlar belgilangan. Xususan, **“Oila kodeksi”ning 16-moddasida** nikoh tuzishga **monelik qiluvchi holatlar** aniq bayon etilgan [1].

Islom ulamolari va fiqh ilmida **“ahli nikoh bo‘lmagan ayollar”** yoki **“harom qilingan ayollar”** tushunchasi mavjud bo‘lib, u muayyan shaxs uchun shar’iy jihatdan nikoh tutish taqiqlangan ayollar toifasini anglatadi. Bu ta’rif Qur’on karimda aniq va mufassal bayon etilgan. Xususan, **“An-Niso” surasining 23-oyatida**, nikohlash mumkin bo‘lmagan ayollar ro‘yxati keltiriladi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh masalasi dunyo mamlakatlarida turlicha baholanadi va huquqiy jihatdan har xil tarzda tartibga solinadi. Bu sohadagi xorijiy tajriba shundan dalolat beradiki, jamiyat va davlat sog'lom avlod, genetik xavfsizlik va bioetik me'yorlarni ta'minlash uchun Janubiy Koreyada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh Fuqarolik kodeksi (Civil Act) asosida qat'iy taqiqlangan [2].

Qozog'iston va qardosh xalqlarda keng tarqalgan "**Jeti ata**" an'anasiga ko'ra, shaxs 7 avlod oldingi qarindoshlarini bilishi lozim bo'lib, shu holatga asosan **birro'g'lik yoki analar/ota tomonlama yoqin qarindoshlar orasida nikoh tuzilishi taqiqlangan**. Bu qoida nafaqat genetik xavflardan saqlash, balki ruhiy va mafkuraviy faollikni ta'minlashga xizmat qiladi [3].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot metodologiyasi qarindoshlar o'rtasidagi nikohni sotsiologik va bioetik nuqtayi nazardan kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, nazariy, analitik va empirik yondashuvlarning integratsiyasi asosida qurildi.

Maqolaning kontseptual doirasi klassik sotsiologlardan E.Dyurkgeymning ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi [4], hamda zamonaviy nazariyotchilar – Talcott Parsons [5], **Peter L.Berger** va **Thomas Luckmann** tomonidan 1966-yilda ishlab chiqilgan **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyasi [6] va E.Giddensning refleksiv modernlik yondashuvi [7] asosida shakllantirildi.

Metodologiya multimetodik va bioijtimoiy yondashuvga tayanib, qarindoshlar nikohining: ijtimoiy ildizlari, madaniy asoslari, bioetik xavflari, demografik oqibatlarini, kompleks tarzda o'rganildi. Shuningdek sotsiologik so'rovnomada tadqiqotning asosiy empirik manbasi sifatida bir necha hududda tashkil etildi va uning natijalari tahlil qilindi.

ASOSIY QISM

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar masalasiga sotsiologik tadqiqot doirasida to'rt asosiy nazariy yondashuv orqali izoh berish mumkin: strukturaviy-funksionalizm, tashqi determinizm va ijtimoiy konstruktivizm, biyoetik paradigma hamda simvolik interaksionizm. Ushbu yondashuvlarning har biri muammoning turli qirralarini ochib beradi va ularning uyg'unlashtirilgan tahlili orqali masalaning kompleks mohiyatini anglash imkoniyati yuzaga chiqadi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar strukturaviy-funksional yondashuv doirasida an'anaviy jamiyatlarda barqarorlikni saqlash, mulkiy munosabatlarni nazorat qilish va ichki ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, Surxondaryo, Qashqadaryo yoki Sirdaryo viloyatlarida olib borilgan empirik kuzatuvlarda, bunday nikohlar orqali mulk begonalarga o'tmasligi, qarindosh urug'lar o'rtasida ishonchli aloqa saqlanishi, "biznikilar" tamoyiliga amal qilinishi aniqlangan. Bu holatlarda nikoh institutining funksiyasi faqat ikki shaxs o'rtasidagi aloqa emas, balki butun urug'-aymoq va jamoa ichida ijtimoiy nazoratni mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Strukturaviy-funksionalizm nazariyasi (Émile Durkheim, Talcott Parsons) [4,5] jamiyatni bir-biriga bog'langan va o'zaro muvozanatda faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutlar majmui sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir ijtimoiy hodisa, shu jumladan nikoh institutining ham, jamiyatda muayyan funksiyani bajarishi lozim. Ana shu funksiyalar orqali jamiyat barqarorligi, ijtimoiy tartib va qadriyatlar tizimi saqlab qolinadi.

Strukturaviy-funksional yondashuv bunday nikohlarni ijtimoiy reproduksiya ya'ni avlodlardan avlodga qadriyatlar, norma va urf-odatlarining uzluksiz o'tishini ta'minlovchi mexanizm sifatida baholaydi. Bu esa, uzoq yillar davomida jamoada qarindoshlar o'rtasida nikohni "tabiiy" yoki "o'zimiznikilar orasida" degan asos bilan ijtimoiy jihatdan maqbul, deb topilishiga olib keladi. Shunday qilib, bu yondashuv orqali qarindoshlik nikohi individual tanlov emas, balki ijtimoiy tizim ehtiyojlaridan kelib chiqadigan barqarorlik strategiyasi sifatida tushuntiriladi.

Tashqi determinizm va ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi. Tashqi determinizm ijtimoiy falsafadagi asosiy konsepsiyalardan biri bo'lib, unga ko'ra inson qarorlari va xatti-harakatlari ichki istaklardan ko'ra ko'proq tashqi ijtimoiy omillar – jamiyat bosimi, an'analar, qadriyatlar, oila yoki mahalla talablari orqali belgilanadi. Bu qarashga asoslangan holda, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar shaxsiy erkin tanlov emas, balki ijtimoiy me'yorlarga moslashish natijasi sifatida shakllanishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi.

Bunga yaqin yondashuv sifatida **Peter L. Berger** va **Thomas Luckmann** tomonidan 1966-yilda ishlab chiqilgan **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, “haqiqat” insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida quriladi. Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar, ushbu nazariy yondashuv nuqtai nazaridan, faqatgina biogenetik hodisa yoki shaxsiy qaror emas, balki ijtimoiy konstruksiya – ya’ni, jamiyat ongida shakllangan “normal” amaliyotdir [6].

Tadqiqot davomida O‘zbekistonning ayrim hududlarida (Surxondaryo, Qashqadaryo, Sirdaryo) o‘tkazilgan intervyu va sotsiologik so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik holatlarda qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish “ishonchli”, “begonadan himoyalangan”, “naslni saqlovchi” va “mulkni qo‘riqlovchi” yo‘l sifatida qabul qilinadi. Bu qarashlar o‘z navbatida, jamiyatdagi qadriyatlar, ma’naviy stereotiplar va tarixiy an’analar asosida barpo bo‘lgan ijtimoiy ong mahsulidir. Bunday hollarda yoshlarning nikoh tanlovi jamiyat tomonidan “to‘g‘ri”, deb baholangan yo‘nalishga moslashtiriladi.

Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, bu kabi normalashtirilgan ijtimoiy harakatlar vaqt o‘tishi bilan avloddan-avlodga o‘tib, mustahkam axloqiy va madaniy normalarga aylanadi. Qarindoshlik nikohining biologik va bioetik xavflariga qaramay, uning jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, aynan shu konstruksiyalangan tasdiq mexanizmlariga bog‘liq. Shunday qilib, ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi yaqin qarindoshlar nikohini “ijtimoiy ravishda qurilgan normal hodisa” sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Bioetik yondashuvning asosiy tamoyillari. Bioetika – bu sog‘liqni saqlash, tibbiyot, genetika va biotexnologiya sohalaridagi axloqiy masalalarni o‘rganuvchi mutaxassislik sohasi bo‘lib, u inson qadr-qimmatini, huquqlari va sog‘lom turmush huquqi bilan bog‘liq masalalarga asoslangan. Ushbu yondashuv tibbiy qarorlar qabul qilishda nafaqat klinik samaradorlikni, balki **axloqiy-huquqiy tamoyillarni ham hisobga olishni talab qiladi**. Shu tufayli bioetik yondashuvda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh faqat shaxsiy tanlov emas, balki **avlod salomatligi, jamiyat barqarorligi va axloqiy mas’uliyat nuqtai nazaridan ham tahlil qilinishi lozim**. Bunday yondashuv inson huquqlarini ta’minlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash va barqaror reproduktiv madaniyatni shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu yondashuvda qarindosh nikohlari orqali tug‘ilgan farzandda irsiy kasalliklar, tug‘ma nuqsonlar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo‘lishi axloqiy muammo sifatida baholanadi. Bu – “bolaning kelajakda hayot sifati buziladi” degan xavf bilan bog‘liq va shu tufayli bioetik nuqtai nazardan bunday nikohlar inson huquqlariga zid hisoblanadi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh natijasida genetik xavf 3-4 barobar oshishi va bunda sog‘lom bo‘lmagan avlodning tug‘ilishi ehtimoli yuqoriligi ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan [8]. Ushbu holat farzandning yashash sifati, psixik va jismoniy rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuningdek, bu bolalarning doimiy parvarish va tibbiy xizmatga muhtoj bo‘lishi nafaqat oilaga, balki sog‘liqni saqlash tizimi va jamiyatga katta ijtimoiy-iqtisodiy yuk bo‘lib tushadi.

Shu sababli, bioetik yondashuvda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar nafaqat shaxsiy yoki oilaviy tanlov, balki ijtimoiy va axloqiy javobgarlik masalasi sifatida baholanadi. Bu nikohlarning oqibatlari – farzandlar sog‘lig‘i, jamiyat genofondi, tibbiy xizmatlar yuklamasi va umumiy demografik barqarorlik – butun jamiyat manfaatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Bioetika, o‘z navbatida, inson salomatligini himoya qilish, kelajak avlodning hayot sifati va huquqlarini ta’minlash, shuningdek, genetik xavflarni kamaytirish borasida muhim nazariy va amaliy poydevor sifatida xizmat qiladi [9]. Bunday yondashuv orqali yaqin qarindoshlar nikohining salbiy oqibatlarini faqat tibbiy emas, balki axloqiy, ijtimoiy va huquqiy mezonlar asosida ham baholash imkoniyati yaratiladi.

Simvolik interaksionizm nazariyasi – XX asr amerikalik sotsiologlari **George Herbert Mead** va uning shogirdi **Herbert Blumer** tomonidan asoslangan bo‘lib, uning markaziy g‘oyasi shundan iboratki: **insonlar o‘z xulq-atvorini atrofdagilar bilan o‘zaro muloqot jarayonida shakllanadigan ramzlar, ma’nolar va belgilar asosida qurishadi** [10]. Jamiyatda mavjud bo‘lgan “hayot ma’nolari” shaxslarga muloqot, tarbiya, madaniy ijod, diniy ta’limot va ommaviy ong orqali yetkaziladi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar ham aynan shunday simvolik-ma'naviy mezonlar asosida jamiyat ongida "qabul qilinadigan" yoki "zarur", deb hisoblanadigan harakat sifatida shakllanadi. Tadqiqot davomida respondentlar orasida "uyatdan saqlanish", "qon tozaligi", "naslni asrash", "begonaga qiz bermaslik" kabi tushunchalar shunday nikohlarni oqlashda asosiy ramzlar sifatida tilga olingani kuzatildi.

Simvolik interaksionizmga ko'ra, shunday tuzilgan ma'nolar tizimida insonlarning tanlovi axloqiy yoki tibbiy emas, balki **ijtimoiy ma'qullik** mezonlari asosida yuzaga keladi. Ya'ni, "qarindoshga berish" – bu bir shaxsning qarashi emas, balki u mansub bo'lgan jamoaning undan kutgan harakatidir. Bu esa shaxsiy avtonomiyani cheklaydigan, ijtimoiy bosimga asoslangan qarorlar tizimini yaratadi. Shunday qilib, simvolik interaksionizm yondashuvi orqali yaqin qarindoshlar nikohi faqat biogenetik yoki huquqiy masala emas, balki **madaniy-ramziy kommunikatsiya mahsuli** sifatida, ya'ni jamiyatda o'rnatilgan ma'nolar tizimi orqali shakllangan ijtimoiy voqelik sifatida izohlanadi.


Ushbu masala yuzasidan yurtdoshlarimizning yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga munosabati, bu masaladagi axborotlilik darajasi, shaxsiy yoki oilaviy tajribasi, irsiy kasalliklar holatlari va ularning ehtimoliy sabablari haqidagi fikrlari tadqiq etildi. Sotsiologik so'rovnoma (anketa usuli) – tadqiqotning asosiy empirik manbasi sifatida bir necha hududda tashkil etildi. Jumladan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida 18 yoshdan katta aholi o'rtasida maqsadli tanlama asosida so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma natijalari orqali aholining bioetik tushunchalari, jamiyatdagi madaniy an'analar va sog'liqqa oid xavotirlari o'rtasidagi murakkab va ko'p qatlamli o'zaro bog'liqliklar tasniflandi. Tadqiqot jarayonida jamiyatda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga bo'lgan munosabat faqat diniy yoki an'anaviy qarashlar bilan emas, balki sog'lom avlodga bo'lgan intilish, tibbiy xavotirlar va bioetik yechimlarga ham bog'liq ekanini namoyon bo'ldi.


Ushbu empirik ma'lumotlarning tahlili asosida qarindosh nikohlarining ijtimoiy ildizlari – urf-odatlar, mulkni saqlashga intilish, tanish-bilishlikka asoslangan ishonch kabi omillar chuqur o'rganildi. Shuningdek, so'rov ishtirokchilari tomonidan tilga olingan ijobiy oqibatlar (oilaviy yaqinlik, iqtisodiy barqarorlik) va salbiy holatlar (irsiy kasalliklar, ijtimoiy tanqid, psixologik muammolar) mazmunan tahlil qilindi.

Respondentlarning qarindoshlar o'rtasida nikoh qurishga munosabati o'rganilganda aniqlandiki, 60% (11% + 49%) respondentlar qarindoshlar o'rtasidagi nikohga qarshi ekanini bildirgan. Bu holat, aholida sog'lom salomatlik madaniyati va bioetik ong shakllanayotganini ko'rsatadi. 11% respondentning befarq munosabati esa jiddiy targ'ibot-tashviqot ishlariga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Bu guruh odatda ma'lumotsizlik yoki madaniy sukut tufayli passiv munosabatda bo'ladi. qarindoshlar o'rtasida nikoh qurishni qo'llab-quvvatlovchilar 25%ni tashkil etdi. Bu yuqori ko'rsatkich hisoblanadi va yaqin qarindoshlik nikohlariga ijobiy munosabat hali ham kuchli ekanini anglatadi. Buning sabablari an'anaviy qarashlar, jamiyatdagi ma'lumot tanqisligi, mutaxassis maslahati yoki tibbiy xulosa olish madaniyatining pastligi, oilaviy-iqtisodiy manfaatlarni ustuvor ko'rishi bo'lishi mumkin (1-rasm).

So'rov natijalari yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga qarshilik bildiruvchi fikrlar ustun ekanini ko'rsatadi. Lekin, 25% qo'llab-quvvatlash holati hali ham bu muammoning dolzarbligini inkor eta olmasligini tasdiqlaydi. Ushbu masalani oldini olish maqsadida ta'lim muassasalarida bioetik tarbiyani kuchaytirish, nikoh oldi tibbiy maslahatni majburiy qilish, ommaviy axborot vositalarida sog'lom oila va irsiy salomatlik mavzusida keng tarqatuv ishlari olib borish, mahalla va diniy faollar ishtirokida ma'rifiy suhbatlar tashkil etish zarurati borligini belgilaydi. "Sizning oilangizda yoki qarindoshlaringiz orasida shunday nikoh holati uchraganmi?" degan savol bilan respondentlarga murojaat qilinganda, So'rov natijalariga ko'ra, har **to'rt nafar respondentdan biri (27%)** o'z oilasi yoki yaqin qarindoshlari orasida **yaqin qarindoshlik asosida nikoh** holatini kuzatgan. Bu – **juda jiddiy va xavotirli ko'rsatkich** hisoblanadi (2-rasm).



1-rasm. Respondentlarning qarindoshlar o‘rtasida nikoh qurishga munosabati



2-rasm. Respondentlarning oila yoki qarindoshlari orasida yaqin qarindoshlik nikoxining mavjudligi

73% “yo‘q” javobi bilan bu turdagi nikohlar umumiy aholida hali ham nisbatan kam yoki maxfiy holda sodir bo‘layotganini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar omma oldida ochiq tan olinmasligi, yoki an’anaviy munosabatlar tufayli oddiy hol deb qabul qilinishi mumkin. Shu bois 27% real holat aslida ko‘proq bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Ushbu natijalar yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar faqat nazariy muammo emas, balki real hayotda uchrab turgan ijtimoiy-bioetik muammo ekanini tasdiqlaydi. Bu holatni rad etish emas, asosli ilmiy yondashuv, axborot-ma’rifat ishlarini kuchaytirish, va xavfsiz oilaviy muhitni shakllantirishga qaratilgan siyosat yuritish lozim.

XULOSA

Olingan natijalar qarindosh nikohlar masalasiga xolis, ko‘p jihatli va ilmiy yondashuv zarurligini ko‘rsatdi hamda kelgusida davlat siyosati, jamoatchilik ma’rifati va sog‘liqni saqlash tizimida kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh – biogenetik, bioetik, ijtimoiy va madaniy jihatdan murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, uning natijalari faqat shaxsiy yoki oilaviy doirada emas, balki butun jamiyat salomatligi va barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy tadqiqotlar bunday nikohlar ortidan farzandlarda irsiy kasalliklar, aqliy va jismoniy nuqsonlar

kuzatilish ehtimoli yuqori ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sotsiologik tahlillar va so‘rovlar jamiyatda ushbu muammoga bo‘lgan munosabat turlicha ekanini, ayrim hududlarda esa an’anaviy tushunchalar ta’sirida bunday nikohlar hali ham amal qilib kelayotganini ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar/Литература/Literature

1. <https://lex.uz/acts/-104720#:~:text=16%2Dmodda.%20Nikoh,30%2D%20moddasi>
2. Korean Civil Act (제809조) – <https://elaw.klri.re.kr>
3. https://www.advantour.com/kazakhstan/traditions/wedding.htm?utm_source
4. Durkheim É. *The Division of Labour in Society*. Simon and Schuster, ISBN 0684836386, 9780684836386., 1997. 352 p.
5. Parsons T. *The Social System*. New York: Free Press. 1937. – 448 p.
6. Berger P.L., & Luckmann T. *The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge*. Garden City, NY: Anchor Books. 1966.
7. Giddens E. *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age*. Cambridge: Polity Press, 1991.
8. WHO (2010). *Medical genetic services in developing countries: The ethical, legal and social implications*. Geneva: World Health Organization. <https://www.who.int/publications/i/item/medical-genetic-services>
9. Beauchamp T.L., & Childress J.F. (2013). *Principles of Biomedical Ethics* (7th ed.). Oxford University Press. Gillon R. (1994). *Medical ethics: four principles plus attention to scope*. *BMJ*, 309(6948). – P.184-188.
10. Blumer, H. *Symbolic Interactionism: Perspective and Method*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. (1969). https://www.scirp.org/reference/references_papers?referenced=375764

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000